



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 173-180 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### HUDUDIIY IQTISODIY SIYOSAT SAMARADORLIGINI INSTITUTSIONAL TASHXIS ASOSIDA BAHOLASH



**Turakulov Timur**

TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning  
ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi

[tta-tima.ik-304@mail.ru](mailto:tta-tima.ik-304@mail.ru)

<https://orcid.org/0009-0009-6423-6630>

**Annotatsiya.** Maqolada hududlar iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholashda yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanishning metodik jihatdan yetarli emasligi asoslanadi. Hududda yalpi hududiy mahsulot, investitsiya, sanoat yoki xizmatlar hajmining o'sishi muhim natija hisoblanadi, ammo bu natija qanday institutsional sharoitda shakllangani, qaysi boshqaruv bo'g'ini uni kuchaytirgani yoki qaysi to'siq uning mahalliy iqtisodiyotga tarqalishini cheklagani alohida tashxisni talab qiladi. Shu maqsadda maqolada "iqtisodiy natija – institutsional sharoit – mahalliy iqtisodiy ta'sir" uchligiga asoslangan institutsional-diaagnostik baholash mexanizmi ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** hududiy rivojlanish, davlat tartibga solishi, institutsional tashxis, mahalliy iqtisodiy zanjir, tadbirkorlik muhiti, investitsiyani qabul qilish qobiliyati, boshqaruv samaradorligi.

**Аннотация.** В статье обосновывается методологическая неадекватность ограничения оценки эффективности государственного регулирования региональной экономики конечными экономическими показателями. Рост валового регионального продукта, инвестиций, промышленности или услуг в регионе является важным результатом, но институциональные условия, при которых этот результат сформировался, какое управленческое звено его усилило или какой барьер ограничил его распространение в местной экономике, требуют отдельной диагностики. С этой целью в статье разработан институционально-диагностический механизм оценки, основанный на триаде «экономический результат – институциональные условия – местное экономическое воздействие».

**Ключевые слова:** региональное развитие, государственное регулирование, институциональная диагностика, местная экономическая цепочка, деловая среда, способность к поглощению инвестиций, эффективность управления.

**Abstract.** The article substantiates the methodological inadequacy of limiting oneself to final economic indicators in assessing the effectiveness of state regulation of the regional economy. The growth of gross regional product, investment, industry or services in the region is an important result, but the institutional conditions under which this result was formed, which management link strengthened it, or which barrier limited its spread to the local economy require a separate

*diagnosis. For this purpose, the article develops an institutional-diagnostic assessment mechanism based on the triad of "economic result - institutional conditions - local economic impact".*

**Keywords:** *regional development, state regulation, institutional diagnostics, local economic chain, business environment, investment absorption capacity, management efficiency.*

## **Kirish**

Hududiy iqtisodiy siyosatda eng qiyin masalalardan biri – davlat tomonidan qo'llanilayotgan choralarning haqiqiy samarasini aniq ko'ra bilishdir. Amaliyotda ko'p hollarda baholash yakuniy raqamlarga tayanadi: yalpi hududiy mahsulot o'sdimi, investitsiya kirdimi, sanoat ishlab chiqarishi yoki xizmatlar hajmi ko'paydimi, tadbirkorlik sub'ektlari soni ortdimi. Bu ma'lumotlar zarur, lekin ular hududda iqtisodiy o'sishni yuzaga keltirgan yoki aksincha, uni cheklab turgan institutsional shart-sharoitni to'liq ochib bermaydi. Bir xil investitsiya hajmi ikki hududda mutlaqo turlicha natija berishi mumkin: birida u mahalliy yetkazib beruvchilar, xizmatlar va ish o'rinlari bilan bog'lanadi, boshqasida esa tor doirada qolib ketadi.

So'nggi yillarda mintaqaviy rivojlanish bo'yicha xalqaro adabiyotlarda "hamma hudud uchun bir xil retsept" usulidan voz kechish, hududning ichki imkoniyati, boshqaruv sig'imi va institutsional sharoitini hisobga olish zarurligi ko'p ta'kidlanmoqda. OECD hujjatlarida hududiy siyosatning samarasi faqat mablag' ajratish bilan emas, ko'p darajali boshqaruv, mahalliy salohiyat va manzilli choralar uyg'unligi bilan bog'lanishi ko'rsatiladi (OECD, 2023; OECD, 2025). Yevropa Ittifoqi ham hududiy konvergentsiya va koxeziya siyosatini baholashda institutsional salohiyat, ma'muriy kompetentsiya va hududiy ehtiyojga moslashuvni muhim omil sifatida ko'radi (European Commission, 2024).

O'zbekistonda ham strategik rejalashtirish va hududlarni rivojlantirish bo'yicha hujjatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari, ularning davlat dasturlari bilan bog'liqligi va natijaga yo'naltirilgan monitoring masalasi kuchayib bormoqda va bu vazifa hududiy iqtisodiy siyosatni baholashda faqat hisobot ko'rsatkichlari bilan cheklanmasdan, natijaga olib kelgan institutsional jarayonlarni ham ko'rishni talab qiladi.

## **dabiyotlar sharhi**

Hududiy rivojlanishga oid zamonaviy tadqiqotlar iqtisodiy o'sishning hududlar bo'yicha notekis shakllanishini faqat resurslar taqsimoti bilan izohlab bo'lmasligini ko'rsatadi. OECD (2023) hududiy tengsizliklar uzoq muddatli xususiyat kasb etishi, ayrim hududlarda past o'sish va past imkoniyatlar o'zaro kuchayib borishi mumkinligini ta'kidlaydi. OECD (2025) esa hududiy siyosatni loyihalashda mahalliy salohiyatni aniqlash, siyosatlar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash, samarali amalga oshirish va ko'p darajali boshqaruvni kuchaytirishni asosiy shart sifatida ko'rsatadi.

Yevropa komissiyasining 9-koxeziya hisobotida hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda moliyaviy resurslar bilan birga mahalliy va mintaqaviy hokimiyatlarning institutsional salohiyati, ma'muriy kompetentsiyasi va strategik dasturlarni amalga oshirish qobiliyati muhimligi ta'kidlanadi (European Commission, 2024). Bu fikr hududiy siyosat samaradorligini baholashda faqat natija ko'rsatkichlarini emas, shu natijani shakllantirgan boshqaruv va institutlar sifatini ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

“Ortda qolayotgan hududlar” mavzusidagi tadqiqotlarda ham hududiy muammoni umumiy rivojlanish darajasi bilan emas, hududning ichki boshqaruv qobiliyati, mahalliy ishtirokchilarning harakatga kelish darajasi va siyosat choralarning joyga mosligi bilan bog‘lash tendentsiyasi kuchaymoqda. Fiorentino et al. (2024) hududlarni qayta tiklash uchun resurs va mexanizmlar har bir joyning sharoitiga qarab farq qilishi lozimligini ta’kidlaydi. Rodríguez-Pose et al. (2024) esa hududiy rivojlanishda samaradorlik va tenglik o‘rtasida sun’iy qarama-qarshilik qo‘yishdan ko‘ra, institutlar, mahalliy agentlik va tashqi o‘zgarishlarga moslashuvni birgalikda ko‘rish zarurligini asoslaydi.

Institutsional sifatning hududiy iqtisodiy natijalarga ta’siri ham so‘nggi tadqiqotlarda alohida yo‘nalish sifatida ko‘rinmoqda. Finocchiaro Castro et al. (2025) mahalliy hukumatlar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish samaradorligi institutsional sifat, xususan, tartibga solish sifati, huquq ustuvorligi va korrupsiyani cheklash bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Amoroso, Herrmann and Kritikos (2024) yuqori o‘shishga ega firmalar ulushi mintaqaviy hukumat sifati va tartibga solish muhiti bilan bog‘liq ekanini aniqlaydi. Demak, tadbirkorlik va firma o‘shishini baholashda ham rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan sub’ektlar sonining o‘zi yetarli emas; ular faoliyat yuritayotgan institutsional sharoit ham muhim.

Mahalliy ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlik masalasi institutsional tashxis uchun muhim nazariy asos beradi. Gartzou-Katsouyanni (2024) institutsional jihatdan zaif, ishonch darajasi past hududlarda mahalliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun avvalo hamkorlikka to‘sqinlik qilayotgan aniq omillarni tashxis qilish kerakligini ko‘rsatadi. Li et al. (2025) esa mintaqaviy boshqaruv va hududiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘p o‘lchamli va hududlar bo‘yicha turlicha ta’sirga ega ekanini ta’kidlaydi.

Mavjud adabiyotlar hududiy siyosatda joyga moslashuv, institutsional sifat, mahalliy boshqaruv salohiyati va iqtisodiy natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Biroq ularda davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini hudud kesimida qanday baholash, qaysi institutsional bo‘g‘in natijani cheklayotganini qanday aniqlash va tashxis natijasini boshqaruv chorasiga qanday aylantirish masalasi alohida metodik mexanizm sifatida yetarli darajada shakllanmagan. Bu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot metodologiyasi institutsional iqtisodiyot, hududiy rivojlanish nazariyasi va davlat tartibga solishi samaradorligini baholashga oid metodik qarashlarni birlashtirishga asoslanadi. Maqola empirik indeks hisoblashni maqsad qilmaydi; asosiy e’tibor hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligini baholash uchun amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan tashxis mantig‘ini ishlab chiqishga qaratilgan. Shuning uchun tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, institutsional tahlil va mantiqiy modellash tirish usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Hududiy iqtisodiy siyosatni baholashda yakuniy raqamlar muhim, ammo ular boshqaruv qarori uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Yalpi hududiy mahsulot o‘shishi hududda iqtisodiy faollik kuchayganini ko‘rsatadi, biroq bu o‘shish qaysi tarmoqlar hisobidan shakllangani, aholi daromadlariga qanchalik ta’sir qilgani, kichik biznes va xizmatlar bozoriga qanday tarqalgani ochilmasa, natijaning sifati noaniq qoladi. Investitsiya hajmi oshishi ham xuddi shunday: agar investitsiya mahalliy yetkazib

beruvchilar, xizmat ko'rsatish sub'ektlari va ish o'rinlari bilan bog'lanmasa, uning hududiy samarasi cheklanadi.

Shuning uchun hududiy iqtisodiy siyosatda "resurs – institut – natija" zanjirini ko'rish zarur. Resurs deganda hududdagi moliyaviy, tabiiy, mehnat, infratuzilmaviy va tadbirkorlik imkoniyatlari tushuniladi. Institut bu resurslarni harakatga keltiradigan qoidalar, tashkilotlar, ma'muriy tartiblar, axborot almashinuvi va bozor munosabatlari tizimidir. Natija esa ishlab chiqarish, xizmatlar, investitsiyaning qaytishi, yangi ish o'rinlari, tadbirkorlik faolligi va aholi daromadlarida namoyon bo'ladi. Agar resurs bor, lekin institut zaif bo'lsa, imkoniyat natijaga aylanmaydi; agar natija bor, lekin mahalliy iqtisodiy zanjirlarga tarqalmasa, o'sish barqaror bo'lmaydi.

**1-jadval.**

**Institutsional-diagnostik baholashning asosiy yo'nalishlari**

| <b>Baholash yo'nalishi</b>             | <b>Mazmuni</b>                                                         | <b>Ko'riladigan belgilar</b>                                        | <b>Boshqaruv uchun savol</b>                                    |
|----------------------------------------|------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| Iqtisodiy natija                       | Hududda yaratilgan yakuniy iqtisodiy qiymat va o'sish sifati           | YAHM, sanoat, xizmatlar, investitsiya, eksport, bandlik             | Natija bormi va u qaysi tarmoqlarda shakllanmoqda?              |
| Investitsiyani qabul qilish qobiliyati | Kiritilgan resursni amaliy loyihaga aylantirish imkoniyati             | Loyiha tayyorligi, yer, infratuzilma, ruxsat jarayonlari            | Investitsiya yo'lida qaysi institutsional to'siq bor?           |
| Tadbirkorlik muhiti                    | Xususiy sektorning ishlashi va bozorga kirish sharoiti                 | Faol korxonalar, kredit, davlat xizmatlari, raqobat                 | Tadbirkor ro'yxatdan o'tgandan keyin barqaror ishlay olyaptimi? |
| Mahalliy iqtisodiy zanjirlar           | Yirik loyiha, kichik biznes, xizmatlar va yetkazib beruvchilar aloqasi | Mahalliy buyurtmalar, xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar, ish o'rinlari | Natija mahalliy iqtisodiyotga tarqalyaptimi?                    |
| Tashqi iqtisodiy ulanish               | Hududning xorijiy kapital va tashqi bozor bilan ishlash qobiliyati     | Xorijiy kapitalli korxonalar, eksport, sertifikatlash, logistika    | Tashqi imkoniyat ichki iqtisodiy faollikka aylanyaptimi?        |
| Boshqaruv ta'sirchanligi               | Mahalliy qarorlarning iqtisodiy natijaga aylanish darajasi             | Axborot almashinuvi, qaror tezligi, monitoring, muvofiqlashuv       | Qaror va natija o'rtasida uzilish bormi?                        |

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, institutsional-diaagnostik baholash yakuniy natijani inkor etmaydi, aksincha uning ortidagi sababni ochishga xizmat qiladi. Bunday baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar boshlang'ich nuqta vazifasini bajaradi. Lekin har bir raqam institutsional sharoit bilan solishtirilmaguncha boshqaruv xulosasi to'liq bo'lmaydi. Masalan, hududda xizmatlar hajmi o'ssa, bu o'sish aholi daromadi, transport, raqamli xizmatlar, kichik biznes faolligi yoki ichki bozor kengayishi bilan bog'liq holda talqin qilinishi lozim.

Institutsional tashxisning asosiy vazifasi hududni "yaxshi" yoki "yomon" deb baholash emas. U har bir hududda resursni natijaga aylantirishda zaif ishlayotgan nuqtani aniqlashga xizmat qiladi. Ayrim hududda muammo loyiha tayyorligida bo'lishi mumkin, boshqasida infratuzilmaga ulanishda, yana birida kredit resurslaridan foydalanishda, boshqasida esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning yirik loyihalarga qo'shila olmasligida namoyon bo'ladi. Demak, davlat chorasini umumiy emas, tashxisda aniqlangan uzilishga mos bo'lishi kerak.

## 2-jadval.

### Tashxis natijasini boshqaruv chorasiga aylantirish matritsasi

| Tashxisda ko'ringan holat                   | Ehtimoliy institutsional sabab                                      | Manzilli boshqaruv chorasini                                                | Kutiladigan o'zgarish                                               |
|---------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Resurs mavjud, ammo iqtisodiy natija past   | Infratuzilma, loyiha tayyorligi yoki ma'muriy jarayon zaif          | Loyiha portfelini tayyorlash, infratuzilmaga ulanish muddatini qisqartirish | Resurs amaliy loyihaga tezroq aylanadi                              |
| Investitsiya bor, mahalliy ta'sir past      | Yirik loyiha kichik biznes va xizmatlar bilan bog'lanmagan          | Mahalliy yetkazib beruvchilar reestri va xizmatlar zanjirini shakllantirish | Investitsiyaning ish o'rinlari va mahalliy daromadga ta'siri oshadi |
| Korxonalar soni ko'p, barqaror o'sish sust  | Bozorga kirish, kredit, davlat xizmatlari yoki raqobatda to'siq bor | Ruxsat, moliya va xizmatlar jarayonlarini soddalashtirish                   | Tadbirkorlik faolligi saqlanadi va kengayadi                        |
| Xorijiy kapital kirgan, faol korxonalar kam | Investorni kuzatib borish, sertifikatlash va logistika yetarli emas | Investordan keyingi xizmat, eksportga tayyorlash va logistika yordami       | Tashqi kapital hududda barqaror faoliyatga aylanadi                 |
| Mehnat resurslari ko'p, mahsuldorlik past   | Kasbiy tayyorgarlik va mahalliy xizmatlar bozori uzilgan            | Qisqa muddatli o'quv, mikrobiznes va xizmatlar loyihalarini bog'lash        | Bandlik va aholi daromadi o'sadi                                    |

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadvalda keltirilgan matritsa institutsional tashxisni amaliyotga ulash vazifasini bajaradi. Agar tashxis faqat muammoni tasvirlasa, u hisobot darajasida qoladi. Tashxis samarali bo'lishi uchun unda aniqlangan uzilish muayyan boshqaruv chorasi bilan bog'lanishi kerak. Masalan, hududda investitsiya kirimi yuqori bo'lib, mahalliy bandlikka ta'siri past bo'lsa, yangi imtiyoz berishdan avval investitsiyani mahalliy yetkazib beruvchilar, xizmatlar va kadrlar tayyorlash bilan bog'lash masalasi ko'riladi.

Mexanizmda yana bir muhim tamoyil – yagona integral ballga ortiqcha bog'lanmaslikdir. Integral indekslar umumiy manzarani berishda foydali bo'lishi mumkin, lekin ular hududning qaysi institutsional bo'g'ini zaif ekanini doim ham ochib bermaydi. Shu sababli taklif etilayotgan baholash tartibi raqamli ko'rsatkichlardan voz kechmaydi, balki ularni sabab va jarayon bilan bog'laydi. Raqam mavjud holatni ko'rsatadi, tashxis esa shu holatning institutsional manbasini aniqlaydi.

Institutsional-diagnostik baholash mexanizmining ishlash tartibi ma'lumotlarni jamlashdan tortib, natija va sharoitni taqqoslash, uzilish nuqtasini aniqlash, manzilli chorani tanlash va natijani qayta kuzatishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Bu ketma-ketlikning afzalligi shundaki, u davlat tomonidan tartibga solishni ma'muriy topshiriqdan natijaga yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi. Birinchi bosqichda ma'lumotlar turli manbalardan yig'iladi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiy natija uni shakllantirgan institutsional sharoit bilan solishtiriladi. Uchinchi bosqichda resursni natijaga aylantirishda qaysi bo'g'in zaif ishlayotgani aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda umumiy dastur emas, aniq muammoga mos chora tanlanadi. Beshinchi bosqichda choraning sanoat, xizmatlar, kichik biznes va bandlikka ta'siri kuzatiladi. Oltinchi bosqich esa monitoring natijasiga qarab boshqaruvni qayta moslashtirishni nazarda tutadi.

Bu mexanizmni amaliyotda qo'llash hududiy rivojlanish institutlarining vazifasini ham o'zgartiradi. Ular faqat yuqoridan berilgan topshiriqni bajaruvchi yoki statistik ma'lumot yig'uvchi tuzilma bo'lib qolmasligi kerak. Ular hududdagi resurslar, tadbirkorlar, infratuzilma, moliya, mahalla va mahalliy boshqaruv o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra oladigan tahliliy-muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida ishlashi lozim. Bunday markaz tayyor qarorni ko'chirmaydi, balki hududning real holatidan kelib chiqib boshqaruv yechimini shakllantiradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi sarflangan mablag' yoki berilgan imtiyoz miqdori bilan emas, shu choraning hududda iqtisodiy natijaga aylanish darajasi bilan baholanishi kerak. Agar mablag' ajratilsa-yu, infratuzilmaga ulanish uzoq davom etsa, natija kechikadi. Agar kredit dasturi ishlasa-yu, kichik biznes bozorga kira olmasa, tadbirkorlik faolligi barqarorlashmaydi. Agar eksport imkoniyati bo'lsa-yu, sertifikatlash va logistika muammosi hal etilmasa, tashqi bozorga chiqish cheklanadi. Shuning uchun har bir davlat chorasi tashxisda aniqlangan institutsional to'siq bilan bog'lanishi shart. Uning yangiligi shundaki, hududiy siyosat natijasi faqat yakuniy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari orqali emas, balki bu o'sishni yuzaga keltirgan institutsional shart-sharoit, resursni natijaga aylantirish qobiliyati va mahalliy iqtisodiy ta'sir orqali baholanadi. Bu esa davlat resurslari va boshqaruv choralari umumiy taqsimotdan aniq institutsional ehtiyojlarga yo'naltirish imkonini beradi.

## Xulosa

Hududlar iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholashda yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlar zarur, lekin yetarli emas. YAHM, investitsiya, sanoat, xizmatlar yoki tadbirkorlik sub'ektlari soni hududda qanday natija shakllanganini ko'rsatadi. Ammo bu natija qaysi institutsional sharoitda paydo bo'lgani, qaysi to'siq uning mahalliy iqtisodiyotga tarqalishini cheklagani va qaysi boshqaruv chorasi samara berishi mumkinligini alohida tashxissiz aniqlab bo'lmaydi.

Maqolada taklif etilgan institutsional-diagnostik baholash mexanizmi hududiy iqtisodiy siyosatni "raqamni qayd etish" darajasidan "sababni aniqlash va chorani moslashtirish" darajasiga olib chiqadi. Mexanizm iqtisodiy natija, institutsional sharoit va mahalliy iqtisodiy ta'sirni birgalikda tahlil qilishga asoslanadi. Bunda hududlarga yagona integral ball berish maqsad qilinmaydi; asosiy vazifa resursni natijaga aylantirishda zaif ishlayotgan institutsional bo'g'inni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish institutlari faqat dastur ijrosini kuzatuvchi tuzilma emas, balki resurs, tadbirkorlik, infratuzilma, moliya va mahalliy boshqaruvni bog'lovchi tahliliy-muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida ishlashi zarurligini ko'rsatadi. Shu tartib joriy etilsa, davlat tomonidan tartibga solish choralari umumiy tavsiya yoki bir xil imtiyoz shaklida emas, hududning aniq institutsional ehtiyojiga mos boshqaruv yechimi sifatida shakllanadi.

Natijada institutsional-diagnostik baholash mexanizmi hududiy siyosatning amaliy ta'sirini kuchaytiradi. U investitsiya, tadbirkorlik va tashqi kapitalni mahalliy ishlab chiqarish zanjirlari, xizmatlar bozori, ish o'rinlari va aholi daromadi bilan bog'lab baholash imkonini beradi. Shu jihatdan bu mexanizm hududlar iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metodik asos sifatida tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

Amoroso, S., Herrmann, B. and Kritikos, A.S. (2024) 'The role of regulation and regional government quality for high-growth firms: the good, the bad and the ugly', *Regional Studies*, 58(9), pp. 1710–1727. <https://doi.org/10.1080/00343404.2024.2366289>.

European Commission (2024) *Ninth Report on Economic, Social and Territorial Cohesion*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

Finocchiaro Castro, M., Guccio, C., Romeo, D. and Vidoli, F. (2025) 'How does institutional quality affect the efficiency of local government? An assessment of Italian municipalities', *Economia Politica*. <https://doi.org/10.1007/s40888-025-00359-0>.

Fiorentino, S., Glasmeier, A.K., Lobao, L., Martin, R. and Tyler, P. (2024) 'Left behind places: What can be done about them?', *Cambridge Journal of Regions, Economy and Society*, 17(2), pp. 259–274. <https://doi.org/10.1093/cjres/rsae012>.

Gartzou-Katsouyanni, K. (2024) 'Obstacles to local cooperation in fragmented, left-behind economies: an integrated framework', *Cambridge Journal of Regions, Economy and Society*, 17(2), pp. 359–374. <https://doi.org/10.1093/cjres/rsad037>.

Li, Y., Wang, Z., Lin, Z. and Gao, Y. (2025) 'Revisiting regional governance and regional development: Measurements, linkages and coupling effect', *World Development*, 185, 106816. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2024.106816>.

OECD (2023) OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/92cd40a0-en>.

OECD (2025) Place-Based Policies for the Future. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/e5ff6716-en>.

Rodríguez-Pose, A., Bartalucci, F., Lozano-Gracia, N. and Dávalos, M. (2024) 'Overcoming left-behindedness: Moving beyond the efficiency versus equity debate in territorial development', Regional Science Policy & Practice, 16(12), 100144. <https://doi.org/10.1016/j.rspp.2024.100144>.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

